

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA “QO'RQUV” KONSEPTINI
VOQELANTIRUVCHI LEKSIK BIRLIKLER**



Axmadaliyeva Gulmira Maruffon qizi,

Farg'onan davlat universiteti,

ingliz tili o'qitish kafedrasi metodikasi o'qituvchisi,

E-mail: gulmiraaxmadieva594@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada qo'rquv konseptini voqelantiruvchi leksik birliklarning ingliz va o'zbek tillaridagi ifodasi va qo'llanilish masalalari atroflicha bayon etildi. Ushbu konseptni ifodalovchi leksik birliklarning assotsiativ maydoni tasniflandi. Shuningdek, maqolada o'rganilayotgan tillardagi qo'rquv konseptiga doir leksik birliklarni tarjima va ekvivalent muammolari haqida ham so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: periferiya, leksema, assotsiativ maydon, konsept, qo'rquv, kognitiv qatlam.

“Qo'rquv” konseptiga berilgan ta’riflar, tilshunos olimlar tomonidan o'rganilgan tadqiqot ishlari haqida so'z yuritar ekanmiz, ushbu maqolamizda biz ko‘proq konseptga doir leksik birliklar haqida so'z yuritamiz. “Qo'rquv” leksemasiga doir leksik birliklarning soni ortishiga sabab bo‘lgan yadroviy so'z ingliz tilida “fear” (qo'rquv) so'zi hisoblanadi. Shu so'zga oid sinonim so'zlar esa qo'rquv konseptiga kiruvchi leksik birliklar sanaladi. “Qo'rquv” konsepti ingliz tilida “fear” leksemasiga mos keladi. “Fear” so‘zining “Cambridge” lug‘atidagi ta’rifi quyidagicha berilgan: *an unpleasant emotion or thought that you have when you are frightened or worried by something dangerous, painful, or bad that is happening or might happen* (1), ya’ni sodir bo‘layotgan yoki sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavfli vaziyatdan qo‘rqib, havotirga tushganingizda paydo bo‘luvchi yoqimsiz his-tuyg‘u va fikrlar qo'rquv so'ziga mos ta’rif bo‘lishi mumkin. “Fear” leksik birligiga sinonim sifatida esa *terror, dread*,

alarm, panic, horror va afraid kabi leksemalar kiradi. Antonim sifatida esa *calmness, confidence, brave* kabi so‘zlarni misol qilishimiz mumkin.

Ingliz tilshunosligida qo‘rquv holati asosan “fear” leksemasi bilan ifodalanadi va uning bir nechta sinonimlari mavjud. Aynan “fear” so‘zi “qo‘rquv” konseptini ifodalovchi yadroviy so‘z hisoblanadi. “Fear” so‘ziga so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shish yordamida *fearful, fearfulness, fearless, fearlessness, fearsome* kabi so‘zlarni hosil qilish mumkin. “Fear” so‘zi asosan *fearfulness, dread, panic, terror, fright, horror, worry, anxiety, afraid, consternation, phobia scare, scarecrow, terrified, terror-stricken* kabi so‘zlar bilan sinonim holatlarda qo‘llaniladi.

Ingliz va o‘zbek lug‘atlarida berilgan ta’riflar asosida har bir leksik birlikning assotsiativ maydonida yadroviy so‘z va uning periferiya shakli mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Yadroviy so‘z doimiy barqaror bo‘lib, u periferiya maydonining asosiy semantic ma’nosiga ega va periferiya maydoni uchun eng tushunarli va semantik jihatdan aniq bo‘ladi.

“Qo‘rquv” konseptining ingliz tilidagi muqobil varianti bo‘lgan “fear” leksemasining leksik va semantik maydoni haqidagi nazariy qarashlarni tilshunos olima Batalina Yelena Aleksandrovnaning quydagicha ta’riflaydi:

“Fear” so‘zining yadroviy markazi bo‘lgan “qo‘rquv” leksemasi bilan bir qatorda *fearful* (*qo‘rqinchli, qo‘rkoq*), *fearless* (*qo‘rqoqlik, qo‘rqinchlilik, dahshatlilik*), *fearfulness* (*qo‘rqmas*) turkumlarini o‘z ichiga oladi.

Yadroviy so‘z “Fear” konseptining sinonim leksemalari sifatida esa *terror (dahshat), fright (qo‘rquv), horror (dahshat), alarm (qo‘rquv, vahima), panic (saorsima, vahima, dahshat), anxiety (tashvish, xavotir), scare (qo‘rqish, vahima), worry (tashvish, xavotir), nervousness (asabiylashish, xavotirlanish, qo‘rqish, cho‘chish), dread (qo‘rqinch, vahima, dahshat), risk (xavf-xatar), danger (xavf-xatar, tahdid)* kabilar berilgan.

Periferiya qatlami esa quyidagi leksik birliklardan iborat bo‘lib, ushbu lisoniy birliklar semantikasida qo‘rquv ma’nosini ko‘rish mumkin: *agitation (hayajon, tashvish, bezovtalik), trepidation (vahima), consternation (qo‘rquv,*

qo'rqinch, vahima, dahshat,), dismay (xavotir, sarosima), distress (tushkunlik, qayg'u), unease (tashvish, xavotir), apprehension (qo'rquv, hadik, cho'chish), timidity (qo'rkoqlik, yuraksizlik), unrest (notinchlik, bezovtalik, tashvish), doubt (shubha), suspicion (shubha), phobia (fobiya, qo'rqish, vahimaga tushish), nightmare (yomon tush, bosinqirash, dahshat), mania (vasvasa), awe (qo'rquv tuyg'usi) kabilar shular jumlasidandir (2).

Yuqorida keltirilgan tasniflar asosida shuni bilish mumkinki, lisoniy paradigmada hissiyotni ifodalovchi tushunchalar alohida o'rinni egallaydi. Shu tufayli, qo'rquv (fear) tushunchalarini ifodalashning assotsiativ maydonini o'rganish zarur. Shu sababli ham, ushbu maqolamizda ingliz va o'zbek tilidagi qo'rquv konseptini ifodalovchi leksik birliklar masalasiga to'xtalib o'tdik va tahlil qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/fear#google_vignette
2. Lyashenko Natalya Aleksandrovna, Batalina Elena Aleksandrovna. On the issue of language means of the concept "fear" verbalization in the modern English language, Филологические науки. Вопросы теории и практики, Тамбов: Грамота, 2017. № 10(76): в 3-х ч. Ч. 1. С. 133-137. ISSN 1997-2911.